

## BOLALARNI TAZYIQ VA ZO'RAVONLIK DAN HIMOYA QILISH TIZIMINI MUSTAHKAMLASH BORASIDA

*Salohiddin Hamroyev*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada bolalarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish borasida amalga oshirilayotgan ishlar tahlil qilinib, respublikaning amaldagi qonunchiligiga axborot kommunikatsiya texnologiyalari rivojlanayotgan zamonda Internet orqali sodir etilishi mumkin bo'lgan holatlarni ham inobatga olish yuzasidan fikrlar ilgari suriladi.

**Kalit so'zlar:** Bola, bola huquqlari, tazyiq va zo'ravonlik, bulling, kiberbulling.

**Annotatsion.** This article analyzes the work being carried out to protect children from harassment and violence, and suggests that the current legislation of the republic should take into account the situations that can be committed through the Internet in the era of developing information and communication technologies.

**Key words:** Child, child rights, harassment and violence, bullying, cyberbullying.

**Аннотация.** В данной статье анализируется работа, проводимая по защите детей от притеснений и насилия, и предлагается, чтобы действующее законодательство республики учитывало ситуации, которые могут совершаться посредством сети Интернет в эпоху развития информационно-коммуникационных технологий.

**Ключевые слова:** Ребенок, права ребенка, притеснение и насилие, издевательства, кибербуллинг.

BMT bosh Assambleyasi tomonidan 1989-yilda qabul qilingan hamda O'zbekiston tomonidan 1992-yilda ratifikatsiya qilingan Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyaning 1-moddasiga asosan shaxs 18 yoshga to'Imagan va u qonunga asosan erta balog'atga yetgan deb topilmagan bo'lsa bola deb hisoblanishi belgilab qo'yilgan.

Qayd etilishicha, bugungi kunda turli davlatlarda olib borilgan 80 ga yaqin tadqiqotlarga ko'ra, maktab o'quvchilarining 35 foizi doimiy ravishda tazyiq va zo'ravonlikka uchraydi. Tazyiq va zo'ravonlikka qarshi kurashish bo'yicha maxsus dasturlarga ega bo'lgan AQSH, Buyuk Britaniya, Skandinaviya davlatlarida bunday dasturlari bo'Imagan davlatlarga qaraganda tazyiq va zo'ravonlik ko'rsatkichi 20 foiz kamroqni tashkil qiladi.

Statistika agentligining ma'lumotlariga e'tibor qaratadigan bo'lsak 2023-yil holatiga ko'ra O'zbekistonda bolalar jami aholining 55-60%ni tashkil etishini ko'rishimiz mumkin. Bu esa respublikada bolalar huquqlarini himoya qilish, ularning yashash, ta'lim olishi uchun keng imkoniyatlar yaratish hamda ularni zo'ravonlikning turli shakllaridan himoya qilishning dolzarbligini yana bir bor ko'rsatib turibdi[].

O'zbekistonda bola huquqlarini ta'minlash kafolatlarini mustahkamlash bo'yicha qator ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan qonunchilikni takomillashtirish bo'yicha so'nggi yillarda qabul qilingan qonunlarning o'zi ham bu soha e'tibordan chetda qolmayotganligining bir dalilidir.

O'zbekistonda bolalar huquqlarini ta'minlash bo'yicha qonunchilik bazasi ishlab chiqilgan va bugungi kunda ham mustahkamlanib bormoqda.

Birgina 2023-yil 12-aprelda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining "Xotin-qizlar va bolalar huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish tizimi yanada takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida" O'RQ-829-son qonuni bilan ham xotin-qizlar va bolalar huquqlarini ta'minlash bo'yicha bir qator huquqiy mexanizmlar belgilandi, voyaga yetmaganlarga nisbatan hamda oila-turmush munosabatlari doirasida sodir etiladigan jinoyatlar uchun javobgarlikni nazarda tutuvchi yangi moddalar kiritildi, mavjudlarida belgilangan jazo choralar kuchaytirildi.

# ILM FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI

15-APREL

ANDIJON, 2024

Xususan, O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksiga yangi 59<sup>2</sup>-modda kiritilib, oilaviy (maishiy) zo‘ravonlik uchun javobgarlik belgilandi.

Mazkur harakatlar ma’muriy javobgarlikka tortilgan shaxs tomonidan qayta sodir etilishi jinoiy javobgarlikka olib kelishi belgilab qo‘yildi.

Bugungi kunda amaldagi qonunchiligidan bolalarga nisbatan sodir etiladigan zo‘ravonlik holatlarini barvaqt aniqlash va bunday holatlar sodir etilishining oldini olish bo‘yicha tegishli chora-tadbirlarni ishlab chiqish uchun ham ushbu harakatlar sodir etilishining sabab va sharoitlari, shakllari hamda boshqa o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganishga mazkur sohadagi huquqiy bazani boyitib borishga e’tibor qaratish talab etiladi.

Shunga ko‘ra, Prezident huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligi, Adliya vazirligi hamda UNICEF hamkorligida “Bolalarni zo‘ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish to‘g‘risida”gi qonun loyihasi ishlab chiqilib, o‘rganish uchun jamoatchilik muhokamasi portaliga joylashtirilgan edi[].

Qonun loyihasida nazarda tutilayotgan asosiy jihatlardan biri bu bolalarga nisbatan sodir etiladigan zo‘ravonlik holatlarining shakllari alohida ajratib ko‘rsatilayotganligi bo‘lib, bu mazkur yo‘nalishdagi izlanishlar huquqiy tomonidan asoslanishiga xizmat qiladi. Loyihaga ko‘ra, zo‘ravonlik quyidagi turlarga bo‘linadi:

jismoniy zo‘ravonlik;

jinsiy zo‘ravonlik;

ruhiy zo‘ravonlik;

g‘amxo‘rlik ko‘rsatmaslik;

majburlash (ekspluatatsiya qilish);

zo‘rlik qilish (bullying);

kamsitish.

Bular jamiyatda eng ko‘p uchraydigan zo‘ravonlik shakllari hisoblanib, kelgusida bolalarga nisbatan zo‘ravonlikning oldini olish borasidagi barcha izlanish va tadqiqotlar, amaliy chora-tadbirlar hamda norma ijodkorligi ushbu shakllarni inobatga olgan holda amalga oshiriladi. Qonun loyihasida ularning alohida belgilab qo‘yliganligi ham shunga xizmat qiladi.

Biroq shu o‘rinda mazkur qonun loyihasi bolalar huquqlarini himoya qilish va ularni tazyiq va zo‘ravonlikdan asrash bo‘yicha aytish mumkin bo‘lsa “davlatning asosiy strategiyasi”ni belgilab berayotganligini hamda “XXI asr – texnologiyalar asri” ekanligini inobatga olib, qonunni yanada boyitish, jumladan zo‘ravonlik shakllari qatoriga kiberbullyingni ham kiritish maqsadga muvofiq bo‘lar edi.

Qonun loyihasida zo‘ravonlikning bir shakli “bullying”ga ta’rif berilib: “bullying – bir guruh bolalar yoki bir bolaning boshqa bolaga yoki bolalarga nisbatan, xususan, zo‘ravonlik qurbaniga nisbatan haqoratli laqablardan foydalanish, u bilan har qanday muloqotni cheklab qo‘yish (boykot qilish), uning mol-mulkini qo‘lga kiritish va (yoki) zarar yetkazish, uning o‘ziga xos jismoniy, psixologik yoki intellektual xususiyatlarini ommaviy muhokama qilish, sha’ni va qadr-qimmatini kamsitish yoki sog‘lig‘i va hayotiga ziyon yetkazishda ifodalangan, shu jumladan telekommunikatsiya tarmoqlari va Internet butunjahon axborot tarmog‘i orqali amalga oshiriladigan muttasil psixologik va (yoki) jismoniy tajovuzkor harakat” ekanligi qayd etilgan.

Bu borada T.P. Abdulovaning fikriga ko‘ra, bullying ruhiy va jismoniy zo‘ravonlikning ko‘rinishi bo‘lib, muntazam ravishda takrorlanib turadigan shaxsga, jamoa a’zolaridan biriga (ayniqsa, maktab o‘quvchisi, talaba, hamkasb) boshqa shaxs tomonidan (bir guruh shaxslar tomonidan) qasddan zarar yetkazishdir. Bullying muayyan shaxs tomonidan, bir guruh shaxslar tomonidan, jamoada rahbar tomonidan, hamkasblar tomonidan uyushtirilishi mumkin. Bullying qurbonga o‘ziga nisbatan zo‘ravonlikni to‘xtatishiga imkon bermaydigan kuchlar tengsizligini nazarda tutuvchi harakat ekan deb hisoblaydi[].

# ILM FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI

15-APREL

ANDIJON, 2024

Bulling uzoq vaqtdan beri bolalarning ijtimoiy hayot tarzidan katta o‘rin egallab kelmoqda. Butun dunyo bo‘ylab juda ko‘p qiz va o‘g‘il bolalar uchun maktab zo‘ravonlikka duchor bo‘lgan joydir. Bezarilik, ta’qib qilish, og‘zaki tahqirlash, jinsiy zo‘ravonlik va ekspluatatsiya, jismoniy jazo va boshqa xo‘rlash shakllari tengdoshlari, o‘qituvchisi yoki hatto maktab rahbari tomonidan sodir bo‘lishi mumkin[].

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari kengayib borayotgani bilan bolalar va yoshlar tomonidan smartfonlardan foydalanish ham ortib bormoqda, bu esa onlayn bezorilik – kiberbulling holatlari sodir etilishiga zamin yaratib, ota-onalar va jamiyatning yana bir tashvish manbasiga aylanmoqda. Mish-mishlarni tarqatish va noto‘g‘ri ma‘lumotlarni joylashtirish, noxush xabarlar, sharmandali sharhlar, fotosuratlar yoki onlayn tarmoqlardan chetlatish (boykot qilish) bolalarga nisbatan kuchli ta’sir qilishi mumkin. Anonimlik yoshlarni o‘zlari xohlagan tarzda harakat qilishga undash orqali kiberbullingni kuchaytirishi mumkin. Bundan tashqari, kiberbulling har qanday vaqtida o‘z qurbanlariga zarba berishi, shu bilan birga zararli xabarlar yoki materiallar o‘sib borayotgan internet auditoriyasida yanada tezroq va ko‘proq tarqalishi, o‘z navbatida xavflarni va uning ta’sirini kuchaytirishi mumkinligini inobatga olmaslikning iloji yo‘q.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, kiberbulling uchun javobgarlikning huquqiy asoslarini ishlab chiqish, uning qurboni bo‘lgan shaxslarni aniqlash, yoshlar o‘rtasida kiberbullingning salbiy oqibatlari, shuningdek ularga nisbatan bunday harakatlar sodir etilgan taqdirda qanday harakat qilishlari lozimligi bo‘yicha tushuntirish berish tartibini joriy etish kerak bo‘ladi.

O‘z o‘rnida, amaldagi qonunchilikda kiberbulling va unga nisbatan qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan javobgarlik choralarining optimal variantlarini tadqiq qilish hamda amaliyatga joriy etish masalasiga ham e’tibor qaratish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.